



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

Badiiy asar tahlilida interfaol metodlardan foydalanish

Yusupova U.A. Andijon viloyati Pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi

REJA:

01. Raqamli adabiyot: zamonaviy tahlil platformalari
02. Dramatik va ijodiy yondashuvlar
03. Aqliy hujum va mantiqiy tahlilni rivojlantirish

**Adabiyot darslarida o'quvchi
shunchaki tinglovchidan
kashfiyotchi - tahlilchiga aylanmog'i
kerak!**



ADABIYOT DARSLARINI MAZMUNLI VA QIZIQARLI TASHKIL ETISH



Adabiyot o'qituvchisi har bir darsni dildan tashkil etsa, o'quvchi har bir sahifada hayotning o'zini ko'radi."

"Adabiyot darsi – bu faqat matnni o'qish emas, balki qalblarni uyg'otish, tafakkurni charxlash va insonni inson qilish san'atidir

"Mazmunli adabiyot darsi o'quvchini o'qishga emas, o'ylashga, his qilishga va hayotga mehr bilan qarashga o'rgatadi."

"Qiziqarli adabiyot darsi – bu so'z sehridan yaralgan mo'jiza; unda o'quvchi o'zini, o'tmishini va orzusini topadi."

NIMA UCHUN INTERFAOLLIK ZARUR?

An'anaviy ta'lim o'quvchilarni
passiv ishtirokchiga aylantiradi.

Interfaol yondashuv esa ularning
ichki salohiyatini ochib beradi.

75%

Passiv tinglash

An'anaviy darslarda o'quvchilar
ma'lumotni faqat qabul qiladi,
tahlil qilmaydi.

Faol ishtirok

Zamonaviy avlod talabi

Yoshlar "bajarish" va
"munozara qilish" orqali
samaraliroq o'rganadilar.

90%

Yuqori o'zlashtirish

Interfaol metodlar orqali
olingan bilimlar uzoq vaqt
xotirada saqlanadi.

SAMARADORLIKNING 3 OLTIN QOIDASI



Matnga asoslanish

Har bir xulosa asardan olingan aniq iqtibos va dalillar bilan mustahkamlanishi shart.



Hamkorlik

Guruhlarda ishlash o'quvchilarda mas'uliyat hissini oshiradi va bir-birini tinglashga o'rgatadi.



Refleksiya

“Men nima o'rgandim?” savoli orqali o'quvchi o'z bilimini tahlil qiladi va mustahkamlaydi.

“RAQAMLI QAHRAMON PROFILLARI” METODI

Qahramon xarakterini zamonaviy formatda tahlil qilish orqali o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini rag‘batlantirish.



“Qahramon profillari” (Social media profile):

O‘quvchilar asardagi asosiy yoki ikkinchi darajali qahramonlar uchun ijtimoiy tarmoq profillarini (masalan, Instagram yoki Telegram kanali formatida) yaratadilar.

Profilda qahramonning sur‘atlari (ularning ichki olamini aks ettiruvchi ramziy rasmlar), biografiyasi (qisqa tahlil), postlari (asardagi muhim voqealar haqidagi yozuvlar) va izohlari (boshqa qahramonlar tomonidan qoldirilgan izohlar) bo‘ladi.

Bu qahramon xakteri, motivatsiyasi va rivojlanishini *matn dalillari* asosida tahlil qilishni talab qiladi.

“RAQAMLI QAHRAMON PROFILLARI”



ISM,FAMILIYA: Mirzakarim Qutidor
TUG‘ILGAN JOYI: Toshkent shahri,
KASBI: Boy, tadbirkor
IJTIMOY MAVQEI: Hurmatli, ammo
eski qarashlarga sodiq inson
OILAVIY HOLATI: Oilali Otabekning otasi

📄 BIO (QISQACHA TAVSIF)

Savdo-sotiqda mohir, el orasida obro‘li, ammo eski udumlar va qat‘iy qarashlarga bog‘langan kishi.

O‘g‘li Otabekning zamonaviy fikrlarini avvaliga tushunmaydi, lekin yuragida farzandiga mehr va g‘urur mavjud.

♥ Qiziqishlari:

Savdo va bozor yangiliklari

O‘tmish qadriyatlari

Uy-ro‘zg‘or barqarorligi

Oila sha‘nini saqlash

□ Tahliliy izoh:

Mirzakarim qutidor — **eski dunyo va yangi zamon**

to‘qnashuvini ifoda etuvchi obraz. U o‘g‘li Otabek timsolida yangi davr fikrini ko‘radi, lekin bu o‘zgarishlarni qabul qilishda qiynaladi.

Shu jihatdan, u o‘z davrining “o‘tish davri odami” — ya‘ni

an‘anaga sodiq, ammo o‘zgarishlarni sezayotgan insondir.

“RAQAMLI QAHRAMON PROFILLARI”



ISM-FAMILIYA: KUMUSH
YOSHI: 17-18 yosh atrofida
TUG‘ILGAN JOYI: Margilon
OILAVIY HOLATI: Turmush qurgan
STATUS: “Muhabbat — insonning eng buyuk sinovi.”

🗣 BIO (qisqa ta‘rif):

Sadoqatli, iffatli, lekin zamonasining cheklovlariga qarshi turuvchi jasur ayol. Uning muhabbati o‘zbek ayolining ruhiy pokligi va fidoyiligining timsolidir.

Sifat	Tavsif
♥ Mehribonlik	Otabekka sadoqat bilan bog‘langan.
🔒 Matonat	Hayotdagi sinovlarga bardoshli.
💬 Fikrlovchanlik	Muhabbat va erkinlik haqida o‘ylovchi ayol.
☹ Fojeaviylik	Taqdir sinovlariga qarshi turib, fojeali yakunga yetadi.

➡️ Raqamli ifoda



- Baxt — muhabbatda, lekin muhabbat fidoyilikni so‘raydi...”
- “Har ayol qalbida kuchli bir orzu yashaydi.”

Bu metod orqali o‘quvchilar qahramonni “ijtimoiy tarmoq profili” kabi tasavvur qilib, uni zamonaviy tilda, lekin asarga sodiq qolgan holda tahlil qilishadi.

“ASAR XARITASI” METODI

(Literary map / Timeline):

Google Maps, Miro, Padlet,

Canva kabi interfaol

doskalardan foydalanib, asar


voqealari sodir bo‘lgan joylar

yoki muhim syujet nuqtalarini

o‘z ichiga olgan xarita yoki

vaqt chizig‘ini yaratish.

Migel de Servantesning “Don Kixot” asari
bo‘yicha tayyorlangan “Asar xaritasi”



“QAHRAMONNING ICHKI MONOLOGI” METODI

yoki biror adabiy asar haqidagi qarashlarni aks ettirgan adabiy podkastlar tayyorlash

(Podcast / Video_blog):

O‘quvchilar asardagi biror keskin vaziyat oldidan yoki keyin qahramonning ichki kechinmalarini, dilemmalarini *birinchi shaxs* nomidan ovozli eshittirish (podcast) yoki qisqa video blog shaklida tayyorlaydilar.



Misol uchun, 10-sinf dasturiga kiritilgan Erix Mariya Remarkning "G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q" (nemischasi: *Im Westen nichts Neues*) asari urush dahshatlari, "yo‘qotilgan avlod"ning umidsizliklari va omon qolish uchun insoniylikni yo‘qotishga majbur bo‘lish haqidagi chuqur tahlildir. Bosh qahramon **Paul Boymer** (Paul Bäumer) — urushning barcha og‘riqlarini boshidan kechirgan va asarning ko‘p qismini o‘zining ichki kechinmalari orqali hikoya qiluvchi markaziy obraz. Paul Boymerning urushning o‘rtasida, dam olish va qisqa tinchlik lahzasida, o‘z hayoti va taqdiri haqida o‘ylayotgan ichki monologi tayyorlanadi va o‘quvchilar audiomatn tayyorlaydilar.

Paul Boymerning ichki monologi

10-sinf dasturiga kiritilgan Erix Mariya Remarkning "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" asari asosida

(Sahna: Chuqur handaq ichi. Tungi smenadan so'ng qisqa dam olish. Paul bir burchakda o'tirib, charchagan ko'zlari bilan qorong'ulikni teshib o'tishga urinadi. Uning yonida uxlayotgan do'stlari Kropp va Tjadenning nafas olishi eshitiladi.)

"Yana bir tun o'tdi. Yana bir qorishmalar, o'qlar va portlashlar zanjiri... G'arbiy frontda o'zgarish yo'q. Faqat tinchlik haqidagi yozuvlar bor xolos, ammo bu yerda, bizning ichimizda hamma narsa o'zgarib bormoqda, har daqiqada...


Men endi 20 yoshdaman. Men dunyo haqida nimalarni bilaman? Faqat o'lim, qo'rquv, ochlik va yolg'on gapirish qanchalik osonligini. Maktabdagi Kantorek kabi o'qituvchilar bizga 'vatanni himoya qilish' kabi balandparvoz gaplarni aytib, bu yerga yuborishdi. Ular bizning avlodimiz— "Temir yoshlik" deb atashdi! Temir? Biz loyga va qonga belanganmiz. Biz shunchaki **yo'qotilgan avlodmiz**. Urushdan oldin nima edik? Talabalar, orzularga to'la o'smirlar. Endi biz nimalarga aylanganmiz? Shunchaki tirik qolishga harakat qilayotgan hayvonlarga.

Uyga qaytish... Agar qaytsam ham, men u yerda nima qilaman? Men ularning gaplariga qanday javob beraman?

Siz monologni qanday davom ettirgan bo'lar edingiz?

“ADABIY SUD” METODI

Asardagi axloqiy muammolar va qahramon harakatlarini tanqidiy tahlil qilish uchun rolli o‘yin.



“ADABIY SUD” JARAYONIDAN LAVHALAR

Aybllovchilar tomoni xulosalari:
Hurmatli hakamlar hay'ati!



Bugun biz Said Ahmadning "Ufq" romanida tasvirlangan, vatanimiz boshiga urush bulutlari yopirilgan og'ir damlarda o'z burchidan, o'z oilasidan va o'zligidan yuz o'g'irgan shaxs – **Tursunboy** ustidan hukm chiqarish uchun yig'ildik. Uning jinoyati – oddiy qochoqlik emas, balki axloqiy va ma'naviy **xoinlik**dir!

Qarang: mamlakatimiz farzandlari Vatan himoyasi uchun jon fido qilayotgan paytda, u qo'rqqoqlik, o'z jonini asrash ilinjida armiyadan qochib ketdi. U o'zining or-nomusini, yigitlik burchini to'qayzordagi qamishlarga almashtirdi. U yerda yashirinib yotib, jonidan to'ygan onasi Jannat xola berib ketadigan ovqatni poylab yashadi. Bu – **o'g'il farzand uchun qanday fojiaaviy tubanlik!**

Tursunboy o'z tanasini tirik saqladi, ammo ruhini, insoniy qiyofasini o'ldirdi. U butun dunyodan ajralib, yovvoyilashdi, o'z ichki qo'rquvlari va xudbinligi qurboniga aylandi. U o'z sevgisi – Zebiga xiyonat qildi, oilasining yuzini yerga qaratdi, qariyalar, ayollar va bolalar front orqasida qahramonona mehnat qilayotgan xalqining sha'niga dog' tushirdi. Eng achinarlisi: o'lim to'shagida yotgan onasi Jannat xolaning so'nggi tilagini inkor etib, uni ko'rish uchun qishloqqa chiqa olmadi. Hatto onasining tobuti yonidan befarq o'tib ketdi! Bunday bemehrlik, vijdotsizlik – **nafaqat insoniyatga xos emas, balki mahluqqa ham emas!**

Tursunboy – ijtimoiy og'riq, o'zining shaxsiy fojeasi bilan butun bir xalqning og'ir kunlariga bepisand munosabatini ko'rsatdi. U o'limi bilan ham gunohlarini yuva olmadi, chunki uning yashash tarzi allaqachon **ma'naviy o'lim edi. Shu bois, Tursunboy obrazini qo'rqqoqlik, xudbinlik va Vatan hamda oilaga xoinlik ramzi sifatida aybdor deb topish lozim!**

Himoyachilar tomoni xulosalari:

Hurmatli sud a'zolari, zalda yig'ilganlar!

Men Tursunboy nomidan emas, balki uning **ezilgan ruhi, sinib ketgan qalbi** nomidan so'zlayman. Tursunboyning qoralash oson, ammo uni bu holatga solgan og'ir zamonning va shaxsiy qo'rquvning tub sabablarini anglash lozim. Tursunboy – **jinoyatchi emas, balki Ikkinchi Jahon Urushining qurboni!** U frontda mardlarcha kurashgan Azizxon yoki Nizomjon kabi bo'la olmadi. Ammo uning aybi – **ojizlikda**, butun insoniyatni qamrab olgan dahshatli urush oldidagi **dahshatli qo'rquvda!**

U qo'rqqan edi, ha, qo'rqqan edi! Bu qo'rquv uni odamzod yashamaydigan joylarga, qamishzorga olib bordi. U o'z tanasini qutqarmoqchi bo'ldi, ammo o'z ruhiyatini qutqara olmadi. Roman aynan Tursunboy timsolida **inson ruhiyatining urush sharoitida qanday sinishini** ko'rsatadi. Uning chekkan azobi – unga berilgan eng katta jazo emasmi?

U to'qayzorda yashirib yotganida ham tinchlik topmadi, o'zini jismonan emas, balki ruhiy jihatdan o'ldirdi. Uning onasiga yeta olmaganligi, onasi tobutiga qarab turishi – bemehrlik emas, balki **qo'rquv tufayli vujudga kelgan falajlik, ayanchli nochorlik** edi! Uning irodasi shunchalik sinib bo'lgandiki, o'zini to'qayzordan chiqarishga ham qodir emasdi.

Adib Said Ahmad Tursunboyning qoralash uchun emas, balki **unga achinishimiz** uchun yaratdi. U – o'zligini yo'qotgan, jamiyatdan begonalashgan, "o'lik tiriklik" holatiga tushgan fojiali shaxs. Uning taqdiri barcha insonlarga urushning naqadar dahshatli ekanligini, hatto eng oddiy odamni ham ma'naviy inqirozga olib kelishini ko'rsatuvchi **achchiq saboqdir.**

Tursunboyning o'limi – u o'z qo'rquviga qarshi chiqa olmagan uchun to'lagan **og'ir to'lovdir. Shu bois, men Tursunboyning "qo'rqqanlik qurboni" deb e'lon qilib, uni aybdor emas, balki o'sha murakkab davrning fojiaiy timsoli sifatida anglashni so'rayman!**



Guvoh Ikromjon (Tursunboyning otasi) monologi:

(“Men uni o‘zim tuproqqa qo‘ydim. Ammo qanday ota edim men?”)

Men – Ikromjonman. Tursunboyning otasi. Men mardonavor yashadim, yashayapman. Lekin o‘g‘limning taqdiri meni doimo kemiradi.



Mening o‘g‘lim frontdan qochib keldi! Butun qishloq yuzimga kulib turib, orqamdan piching qilardi. Men unga qahr qildim, tanimadim, izlamadim. Chunki menda **ota g‘ururi** bor edi. Yigit kishi vatan uchun kurashishi kerak!

Qo‘ying, uning qochoqligini. Men uning o‘limi haqida so‘zlayman! U to‘qayzorda, yolg‘iz, kimsasiz holda... mahuq kabi jon berdi. Uning so‘nggi nafasini men eshitmadim, so‘nggi so‘zini men bilmadim! Men – ota, uni o‘z qo‘lim bilan yerga qo‘ydim!

Bu mening ota sifatidagi eng katta mag‘lubiyatim!

Men uni qutqara olardim. Uni jazolab, xalq oldiga olib chiqib, yig‘latib, pushaymon qilib, qayta inson qilishga urinardim. Ammo men g‘ururimga qul bo‘ldim, undan yuz o‘girdim!

U – qo‘rqoq. Lekin uning qo‘rqoqligi bizning (oila va jamiyatning) **beparvoligimiz** tufayli yovvoyilikka aylandi. Tursunboyning faqat u o‘zi yo‘qotmadi, **biz – uning atrofida-gilar ham uni boy berdik!** Uning xoinligi – bizning tarbiyamizdagi, mehrimizdagi ulkan bo‘shliqning isbotidir. Uni ayblashdan oldin, har bir ota-ona o‘z vijdoniga savol bersin!



Guvoh Jannat xola (Tursunboyning onasi) monologi:

(“Faqat onalik mehrim uni oqlaydi, qolgan hamma narsa...”)

Hoy, odamlar! Meni eshitinglar! Men bu yerda o'g'lim Tursunboyningni oqlash uchun turganim yo'q, men faqat uning onasiman. Axir, inson zoti o'z farzandining yuziga “sen xoin” deya oladimi?!

Qochoq bo'lsa ham, qo'rqqoq bo'lsa ham, u mening jigarbandim edi! Men uning yovvoyilashganini, o'zligidan ajralib borayotganini ko'rdim. Har kuni, har kecha qamishzorga bir burda non olib borganimda, uning ko'zlarida qo'rquv, o'ziga nafrat bor edi. U yovvoyi hayvon emas, balki **o'z qo'rquvi ichiga qamalib qolgan baxtiqaro** edi!

Mening o'limim oldidan bir marta... faqat bir marta uni ko'rishga zor bo'ldim. Kelmadi. Qo'rqdi. Tobutimni ko'tarib ketishayotganini ko'rib ham, indamay qarab turdi... Ha, bu qahrlidir, bu o'g'il farzand uchun qiyomatli gunohdir. Lekin u kelolmasdi! Uning ruhi allaqachon zanjirband qilingan edi.

Uni ayblamang, odamlar. U o'zini o'zi, o'z qo'li bilan jazolab bo'ldi. Mendan o'tgan bo'lsa, o'tdi. Mening Tursunboyim – **hayotda yutqazgan, qo'rqqoq, ammo unga o'sha qizg'ish ufqni ko'rish nasib etmagan bir sho'rlik** edi!



Guvoh Zebi (Tursunboy sevgan qiz) monologi:

(“Ufq ortida qolgan umid... u ham so‘ndi”)

- Men – Zebiman. Men uni sevgan edim. Men urushga ketayotgan barcha yigitlar kabi, uning ham mard bo‘lib qaytishiga ishongan edim. Uning nomi frontda, jang maydonlarida tilga olinishini xohlagan edim. Ammo u frontdan emas, balki orqa eshikdan, qochoq bo‘lib qaytdi. Mendan yashirindi, uchrashuv joyimiz bo‘lgan to‘qayzorda yovvoyi qush kabi yashadi. Men uni yomon ko‘rmadim, ammo uni tushuna olmadim! **Sevgi qo‘rquvni yenga olmadi!**

Agar u mard bo‘lganda, kelib men bilan gaplashardi, o‘z tanlovini tushuntirardi. Lekin u buni qilmadi, chunki u endi Tursunboy emasdi. U – **o‘z qismatidan qochib, tanasi tirik, ammo ruhi o‘lik yashayotgan soyaga** aylangan edi.

Men uning qo‘rqoqligidan nafratlanmadim. Men uning **tanlovsiz, irodasiz qolganidan** iztirob chekdim. Sevgi – bu mardlik degani. U esa o‘z sevgisini ham himoya qila olmadi. U na Vatanini, na otasini va na meni (sevgisini) tanladi. U faqat **qo‘rquvni** tanladi.

Tursunboy bizning ufqimizni ko‘ra olmadi. U, shu urushning og‘ir damlarida eng qadrli narsani – **vijdon erkinligini** qurbon qildi. Uning o‘limi – uning qo‘rquvi ustidan qozonilgan so‘nggi va qayg‘uli g‘alabadir.



5-METOD. “O‘ZGARUVCHAN NUQTAI NAZAR”

Asar kompozitsiyasini va voqealarning subyektivligini anglash uchun ijodiy yozish usuli.

Sahnalarni qayta yozish

Asardagi muhim voqeani ikkinchi darajali qahramon nuqtai nazaridan yozish.

Natija: narrativ nuqtai nazar tushunchasini mustahkamlash.

Muqobil yakun

Asar g‘oyasini saqlagan holda, unga muqobil yakun yozish.

Natija: yozuvchi tanlagan yakunning mohiyatini chuqurroq anglash.



Narrativ nuqtai nazar

Hikoyachi yoki muallif voqealarni qanday pozitsiyadan, kim nomidan va qaysi ruhiy holatdan turib bayon qilayotganini anglatadi.

Asosiy ma'nosi

Kim gapiryapti?

Kimning ko'zi bilan voqealarni ko'rayapmiz?

Hodisalar kimning his-tuyg'ulari orqali berilyapti?

Narrativ nuqtai nazarning turlari

1-shaxs (“Men” shakli)

Hikoya qahramon tilidan:
“Men ko‘rdim, men his qildim...”
O‘quvchi bevosita qahramon ruhiyatiga kiradi.

3-shaxs omniscient (hamma biluvchi nuqtai nazar)

Muallif xuddi hamma ko‘ngilni biladiganday: barcha qahramonlarning fikri, o‘tmishi va kelajagini sharhlaydi.

3-shaxs cheklangan nuqtai nazar

Bir qahramon atrofidagi voqealar:
“U keldi, u o‘yladi...” — lekin faqat shu qahramonning fikri ochiladi.

Nega bu tushuncha muhim?

Qahramon ruhiyatini chuqur anglash uchun , muallifning g‘oyaviy pozitsiyasini tushunish uchun , asarning estetik ta‘sirini tahlil qilish uchun bu juda muhimdir.

Narrativ nuqtai nazar

1 - SHAXS NARRATORI

(Men shakli, shaxsiy izhor)

“Uni koʻrgan zahotim yuragim hapriqib ketdi. Men buni yashira olmadim — nimadir meni ichimdan tortdi. U esa koʻzini menga qaratmadi; lekin shu nigohsiz holatning oʻzi ham menga koʻp gapni anglatdi. Men jim turdim, ammo dilimda ming soʻz gʻuvillardi”.

3-SHAXS NARRATORI:

“U Kumushni koʻrgach, yuragi beixtiyor hapriqdi. Nega bunday tuygʻu paydo boʻlayotganini oʻzi ham anglamasdi. Kumush esa koʻzlarini yerga tikib, sukutda turardi. Ularning orasida aytilmagan, lekin yurakdan yurakka oʻtgan bir izhor bor edi”.

XULOSA

- Narrativ nuqtai nazarni tushunadi;
- Qahramonlarning ichki dunyosini his etadi;
- Ijodiy yozuv va tahlil koʻnikmalarini rivojlantiradi;
- Asar gʻoyasini chuqurroq anglaydi.

Abdulla Qodiriy — “O‘tkan kunlar”

O‘ZBEK OYIM KO‘ZI BILAN”

Tun sokin edi. Otabekning xonasidan past ovozda suhbat eshitilib turardi. Men ularning ovozini tinglab, yuragimda bir og‘riq sezdim. Onaning yuragi o‘g‘lining muhabbatini ham, bu muhabbat unga qanday og‘ir sinovlar keltirishini ham sezadi.

Men Kumushni yaxshi ko‘raman, ammo bu dunyoda mehrdan ham kuchliroq kuch — taqdir bor. O‘g‘lim baxtli bo‘lishini istayman, lekin har bir baxtning soyasida sinov yashiringanini bilaman...

Kumush og‘ir kasallikdan ko‘zini ochdi. Yonida Otabek qo‘lini ushlab o‘tirardi. — Endi hammasi o‘tdi, Kumush, — dedi u sekin. — Bizni ajratgan zamon emas, bizni birlashtirgan tuyg‘u edi.

Kumush jilmaydi:

— Demak, muhabbat yengdi...

O‘sha paytdan boshlab Otabek Toshkentda yangi maktab ochdi — u xalqni ilmga, birlikka chaqirdi. Kumush esa ayollar uchun savodxonlik to‘garagini yo‘lga qo‘ydi. Ularning muhabbati endi faqat yuraklarda emas, el orasida ham yashay boshladi.

Bu mashq orqali o‘quvchi:

Asardagi **voqealarning subyektiv talqinini** tahlil qiladi;
Bir voqeani **turli nuqtai nazardan** ifodalashni o‘rganadi;
Yozuvchi tanlagan yakunning **ma’nosini chuqurroq anglaydi**;
Ijodiy fikrlash va tahliliy yozuv ko‘nikmasini rivojlantiradi



📖 **Qayta yozilgan**

sahna: Otabek va Kumush muhabbati.

👁️ **Nuqtai nazar:**

O‘zbek oyim (onasi)— muhabbatning og‘ir sinov ekanini his qiladi.

✍️ **Muqobil yakun:**
Kumush sog‘ayadi, ular xalq xizmatiga kirishadi.

🎯 **Natija:** Asar
g‘oyasi yangi alqinda davom ettiriladi.



“RANGLAR KODESI” METODI

Asar: Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”



Maqsad: Asardagi g‘oya va obrazlar tizimi va ramziylikni tahlil qilish

Rang kodi jadvali: qizil, ko‘k, yashil rangli kartochkalar

Har bir asar uchun qisqa izoh

Asardan tahlil parchalari

Surat: “O‘tkan kunlar” filmi sahnasi (Otabek va Kumush)



- **Bu metodda** o‘quvchilar asar matnini yoki uning bir parchasini tahlil qilayotganda, turli adabiy elementlar (masalan, mavzu, ramziylik, qahramon xarakteri) uchun turli ranglarni belgilaydilar va matndagi tegishli joylarni shu ranglar bilan belgilab chiqadilar.
- Bu esa vizual metod matn bilan ishlash, dalil toppish va adabiy atamlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmasini mustahkamlaydi.
- Belgilashdan so‘ng o‘quvchilar ma‘lum bir rang ko‘p uchragan joylarni umumlashtirib o‘z tahliliy xulosalarini chiqaradilar


“RANGLAR KODESI” METODI

Asar: Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”

Asardagi **g‘oya, obrazlar tizimi** va **ramziylikni** tahlil qilish orqali Otabek, Kumush va Zaynab timsollarida **yangilik va eskilik to‘qnashuvi**, ayol **erkinligi** hamda **milliy uyg‘onish** g‘oyalarini ochib berish.

Rang kodi jadvali:

	Qizil Ishq, fidoyilik, fojea
	Ko‘k Ma‘rifat, yangilik, orzu
	Yashil An‘ana, hasad, eskilik



“Otabekning muhabbati – xalq orzusining ifodasi, Kumushning sadoqati – o‘zbek ayolining ruhiy qudrati, Zaynabning hasadi esa – o‘tmish kishilik dunyosining so‘nggi nafasi edi.

“VENN DIAGRAMMASI “ METODI


Asar: O'tkan kunlar 3 ustunli jadval (voqealar / kontekst / kesishma)

Xulosa: yangilik va eskilik to'qnashuvi

Vizual: “O'tkan kunlar” kinokadr (Otabek, Kumush, Zaynab)

Venn Diagrammasi – Kontekstual

- An'anaviy Venn diagrammasiga yangicha yondashuv. Diagramma asarning ichki tahlili bilan *kontekstual* tahlilni bog'laydi.
- Bir doira: asar voqealari va xarakterlari.
- Ikkinchi doira: asar yozilgan davrning ijtimoiy, siyosiy, madaniy muhiti.
- Kesishgan joy: kontekstning asar g'oyasiga ta'siri va aks etishi.
 - Bu usul o'quvchilarga asarni shunchaki o'qib qolmay, balki unu tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda tahlil qilishni o'rgatadi
- Xulosa:
- “Asarda yangilik va eskilik to'qnashuvi asosiy g'oya sifatida ko'tarilgan.”
Abdulla Qodiriy o'z asari orqali xalqni o'tmish saboqlaridan xulosa chiqarishga, ma'rifat va yangilanish sari chorlaydi.



“VENN DIAGRAMMASI “ METODI

Asar: O‘tkan kunlar. 3 ustunli jadval (voqealar / kontekst / kesishma)

Xulosa: yangilik va eskilik to‘qnashuvi

Vizual: “O‘tkan kunlar” kinokadr (Otabek, Kumush, Zaynab)

Asar voqealari	Kontekst (ijtimoiy, tarixiy, madaniy muhit)	Kesishma (ta’sir va uyg‘unlik nuqtasi)
Otabek va Kumush o‘rtasidagi muhabbat, Zaynab bilan majburiy nikoh.	XIX asrning oxiri — eski feodal tuzum, an’anaviy qarashlar, erkak hukmron jamiyat.	Yangilik va eskilik to‘qnashuvi: Otabek — yangi fikr, Kumush — ma’rifatli ayol, Zaynab — eski an’analar ramzi.
Otabekning savdo ishlari va ijtimoiy masalalarga e’tibori.	O‘zbek jamiyatining iqtisodiy uyg‘onish davri, milliy o‘zlik va taraqqiyot g‘oyalari.	Otabek obrazi orqali milliy uyg‘onish va yangi davr tafakkuri aks etadi.
Kumush va Zaynab o‘rtasidagi raqobat, ayol taqdiri.	Patriarxal jamiyatda ayollar erkinligining cheklanganligi.	Kumush — ozodlik va vafoning, Zaynab — hasad va majburiyatning timsoli.
Asar yakunidagi fojea — Kumushning o‘limi, Otabekning qayg‘usi.	Eski dunyoning inqirozi va yangi davr g‘oyalarining kirib kelish jarayoni.	Otabekning fojiasi — jamiyatdagi eskilikdan xalos bo‘lolmagan ruhiy to‘qnashuv ifodasi.

Interfaol metodlar o'quvchilarda qanday muhim ko'nikmalarni shakllantiradi?

Interfaol metodlarning ta'siri

An'anaviy metodlarning ta'siri

Tanqidiy fikrlash


Dalillash ko'nikmasi

Ijodiy yondashuv

Hamkorlik

Empatiya

Matn tahlili



Xulosa:

Interfaol dars – bu laboratoriya!

Bizning vazifamiz o'quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki ularni bilimni o'zlari kashf etishga undashdir.

Har bir dars – bu yangi tajriba,
har bir o'quvchi – bu tadqiqotchi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!